



# IQTISODIYOT

## HUDUD VA KORXONALARNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASH

Faridaxon XAMIDOVA<sup>1</sup>

<sup>1</sup>“ISFT” instituti magistratura bo'limi boshlig'i i.f.d., professor

### KALIT SO'ZLAR

Iqtisodiy xavfsizlik, raqobat tizimi, milliy iqtisod mustaqilligi, barqarorlik, iqtisodiy va ishlab chiqarish kuchlari holati, ichki va tashqi xavflar, milliy xavfsizlik konsepsiyasi, tijorat siri, kiberxavfsizlik, moliya nazorati, ichki va tashqi audit institutlari, korrupsiyaga qarshi kurashish, kriminogen vaziyat monitoringi, kapital aylanma.

### КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Экономическая безопасность, система конкуренции, независимость национальной экономики, стабильность, состояние экономических и производительных сил, внутренние и внешние риски, коммерческая тайна, кибербезопасность, финансовый контроль, органы внутреннего и внешнего аудита, противодействие коррупции, мониторинг криминогенной ситуации, оборот капитала.

### KEY WORDS

Economic security, competition system, independence of the national economy, stability, the state of economic and productive forces, internal and external risks, milliy xavfsizlik konsepsiyasi, trade secrets, cybersecurity, financial control, internal and external audit bodies, anti-corruption, monitoring of the criminal situation, capital turnover.

### ANNOTATSIYA

Maqolada hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash dolzarb masalalari tahlil etilgan. Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning mohiyati nazariy jihatdan o'rganilgan va iqtisodiy nuqtayi nazardan tavsiflangan. Hududlar va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sharoitlarini o'rganish mamlakat tabiiy, insoniy salohiyatga ega ekanligini belgilandi.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются актуальные проблемы экономической безопасности в социально-экономическом развитии регионов. Также теоретически обоснована и охарактеризована сущность экономической безопасности. Определено, что для изучения условий обеспечения экономической безопасности в социально-экономическом развитии регионов, страна обладает природным, человеческим потенциалом. Сделан вывод, что для внедрения стратегии экономической безопасности необходимо разработать механизм ее реализации.

### ABSTRACT

The article analyzes current problems of economic security in the socio-economic development of regions. The essence of economic security is also theoretically substantiated and characterized. It has been determined that in order to study the conditions for ensuring economic security in the socio-economic development of regions, the country has natural, human potential. It is concluded that in order to implement an economic security strategy, it is necessary to develop a mechanism for its implementation.

**Kirish.** O'zbekistonda huquqiy demokratik davlat va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklari,

shaxsiy mulk daxlsizligini himoya qilish bo'yicha keng ko'lamlı chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bu borada qonuniylik va



huquq-tartibotni ta'minlaydigan institutsional va huquqiy asoslar shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi samarali tizim faoliyat ko'rsatmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuniga muvofiq, 2017-2018-yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2023-yil 11-sentyabrda qabul imzolangan "O'zbekiston–2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish, aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish, xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish, mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlash xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyunkturasi keskin o'zgarib, globallashtirish sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda.

Shu nuqtayi nazardan iqtisodiy xavfsizlik davlat milliy xavfsizligini ta'min etuvchi asosiy bo'g'inlardan biri, mamlakat iqtisodiy ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash yo'llari, vositalari va usullariga asoslanuvchi qarashlar majmuyidan iboratdir. Konseptual ko'rinishda u

davlat iqtisodiy potentsiali holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillari tahliliga asoslanadi. Kuchsiz va samarasiz iqtisodiyot davlat xavfsizligini ta'minlashi mumkin emas. Bu ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda, ayniqsa yaqqolroq namoyon bo'ladi. Chunki "iqtisodiy xavfsizlik" va "ijtimoiy xavfsizlik" o'zaro bog'liq tushunchalar bo'lib, bir birini to'ldiradi.

#### **Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.**

"Iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasi mazmunini yetakchi olimlar va soha mutahassislari turlicha talqin qilishadi. Xususan: A.N. Klimonova "Iqtisodiy xavfsizlik milliy xavfsizlik va uning tarkibiy elementlari: ishlab chiqarishni rivojlantirish, rivojlangan infratuzilma va foydali qazilmalar, malakali ishchi kuchi mavjudligi, jahon tizimiga integratsiyalashuvni ta'minlash asosidan iborat" [1] deya ta'riflagan. F.D. Ruzvelt "Iqtisodiy xavfsizlik shaxsiy xavfsizlik, ya'ni alohida shaxslar uchun ish mavjudligi, alohida shaxslar va uy xo'jaliklarining moliyaviy holat yomonlashuvidan himoyalanganligini anglatadi" [2; 22]; T.D.Romatshenko "Iqtisodiy xavfsizlik iqtisodiyotning tashqi ta'sirlarsiz o'z iqtisodiy rivojining yo'l va shakllarini belgilash imkoniyati holatidir" [3]; V.G.Senchagov "Bu hukumat institutlarining shunday holatiki, unda milliy manfaatlar kafolatlangan himoyasi, siyosatning ijtimoiy yo'naltirilganligi, hatto noqulay sharoitda ham tashqi va ichki jarayonlarni ta'minlashga qodir yetarlicha mudofaa salohiyati ta'minlanadi" [4]; M.Y.Kiyko "Bu ijtimoiy ne'matlarni hisobga olgan holda tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash uchun mavjud resurslardan oqilona foydalanish yuzasidan shaxs, jamiyat, davlat va xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy



munosabatlarning shunday holatiki, unda ichki va tashqi xavflarga samarali ta'sir ta'minlanadi, shu bilan birga shaxs, jamiyat va iqtisodiyotning barqaror, dinamik rivojlanishi uchun zarur sharoitlar yaratiladi” [5]; A.I.Xorev, T.I.Ovchinnikova “Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror, xatarsiz va raqobatbardosh rivojlanishi” [6].

Yuqoridagilarni umumlashtirib, “Iqtisodiy xavfsizlik” kategoriyasini xo‘jalik yurituvchi subyektlarning o‘z faoliyatida iqtisodiyotning axborotli, innovatsiyali, texnik-texnologik rivojlanishi, uni intellektuallashtirish va inson kapitalini ko‘paytirishdan iborat xatarlarning oldini olish imkonini beruvchi barqaror, raqobatbardosh faoliyati deb ta’riflash mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ushbu maqolaning metodologiyasini deduksiya, abstraksiya, tasniflash, umumlashtirish, qiyosiy, nazariy talqin va tahliliy uslublar tashkil etadi, shuningdek, bibliografik o‘rganish natijasida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va ularga ta'sir etuchi omillar va zarurati aniqlangan.

**Natijalar.** Hozirgi kunda hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun milliy iqtisodiyotni tuzilmaga keltirish va modernizatsiya qilish uchun uzoq va qisqa muddatda investitsiyalarni ko‘paytirish talab etiladi. Biroq Yevropa Ittifoqi va AQSh mamlakatlari tomonidan qo‘llaniluvchi sektoral sanksiyalar milliy iqtisodiyotning rivojlanishiga yo‘l qo‘ymaydi.

Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda milliy xavfsizlikni ta'minlovchi omillarning optimal qiymatlarini belgilovchi sifat va miqdor usullari, zamonaviy shakl va modellarga muhim e'tibor

qaratiladi. O‘zbekiston imkoniyatlari va salohiyatini hisobga olgan holda uning iqtisodiyoti o‘zgaruvchan bozor sharoitlari va usullariga moslasha oladi, mos ravishda optimallashtirish ko‘rsatkichlari ham o‘zgarishi mumkin.

Milliy iqtisodiyotga kiritilgan hudud va korxonalarining iqtisodiy xavfsizlik tizimini batafsil o‘rganish uchun uning uchta asosiy darajasi ajratilishi mumkin (1-rasm).


Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ta'minlashning birinchi darajasi milliy iqtisodiyotning barqaror iqtisodiy o‘rishini ta'minlash maqsadida iqtisodiy choralarni tayyorlash va amalga oshirishda mo‘ljal hisoblanadi, bunda mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish istiqbollari baholash uchun uni belgilovchi mexanizm va vositalar eng muhimlari tanlab olinadi.

Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikning ikkinchi darajasi iqtisodiy pasayish sharoitida iqtisodiy tizimni vaziyatli ifodalovchi omillar hisoblanadi. Ayrim ko‘rsatkichlarning pasayishi mamlakat va hududlarning iqtisodiyotida inqirozning yanada chuqurlashishiga olib kelishi mumkin.

Ikkinchi darajadagi xatarlarni aniqlash mexanizmlari (usullari, yo‘llari, vositalari) quyidagilardan iborat: resurslarning yo‘qotilishi, milliy valyutaning devalvatsiyasi, bozor sharoitlarining yomonlashuvi (shu jumladan, davlatdan qarz olish bozoriga xizmat ko‘rsatish), tashqi savdoning o‘zgarishi (siyosiy

omillar hisoblanuvchi sanksiyalar, iqtisodiy sanksiya sifatida amal qiladi), soliq yukining

### DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH TIZIMIDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH



o'sishi va hokazo.

**1-rasm. Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasi**

Bunda iqtisodiy xavfsizligidagi ba’zi omillarning faqat mutlaq xususiyatlari (ishlab chiqarishni rivojlantirish va diversifikatsiya, rivojlangan infratuzilma, foydali qazilmalarni qazib olish va ishlov berish darajasi oshishi, malakali ishchi kuchi mavjudligi, yuqori texnologiyalardan foydalanish, iqtisodiyotni axborotlashtirish) emas, balki ularning dinamikasi muhim ahamiyat kasb etib, u omillarning xavfli qiymatlari yoki ularga yaqinlashishdan dalolat beradi yoxud iqtisodiyotning optimal yo‘nalishda harakatlanishi imkoniyatlarini aks ettiradi.

Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlashning uchinchi darajasi salbiy yo‘nalishda optimallashtirish ko‘rsatkichlaridan uzoqlashish tizimli, moliyaviy yoki boshqa

inqirozdan dalolat beruvchi tahdidlarni qisqartirish bo‘yicha chora-tadbirlar majmuyi bilan tavsiflanadi. Uchinchi darajali mexanizmlar (ikkinchi darajali mexanizmlar bilan bir qatorda) quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishning sezilarli darajada rivojlanib borayotganidagi ijtimoiy-iqtisodiy ko‘rsatkichlari, subyektlarning o‘z vaqtida qarzdorlik xizmatiga ehtiyoji, moliyaviy tizimni tiklashda xavf-xatarlarning prognozli hisobi va h.k.

Iqtisodiyotni dolzarblashtiruvchi kuch va omillar, ularning mazmuni, turli mualliflar tomonidan o‘rganilgan hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini davlat tomonidan tartibga solish iqtisodiy tizimi imkoniyatlari yoki salohiyatini belgilovchi omillar [7, 8].

Omillar	Omillar mazmuni
Savdo sharoitlarini yaxshilash (savdo sharoitlari indeksi)	Xalqaro savdoda eksport va import narxlari nisbatini belgilaydi; u milliy iqtisodiyotda tashqaridan olib kiriluvchi va mahalliy tovarlar bo‘yicha jahon narxlari o‘zgarishi nimaga sabab bo‘ladi, shuningdek, yuzaga kelgan tovaraylanma tuzilmasida import birligiga haq to‘lash, ya’ni foyda yoki ziyon ko‘rish summasida mahalliy resurslarni qancha (ko‘p yoki kam) sarflash zarurligini ko‘rsatadi
Ichki bozorda xorijiy raqobat miqyosi yoki iste’molda import ulushi kamayishi	O‘zbekiston ishlab chiqarish borasida yetarlicha resurslarga ega mahsulot ulushi juda muhim hisoblanadi
Texnika sig‘imi darajasi oshishi	Eksport va importda mashina va uskunalar, litsenziya, lizing – uzoq muddatli ijara va hokazolar
Iqtisodiyotni diversifikatsiyalash darajasi kengayishi	Iqtisodiyotning mamlakat, xudud va tashkiliy tuzilmasi
Tashqi qarz kamayishi	Tashqi qarzni qoplash uchun yillik to‘lovlar summasining ma’lum yilda eksportdan tushum hajmiga nisbati





Oltin-valyuta zaxiralari oshishi	Oltin-valyuta zaxiralari qiymatining biror-bir yil uchun import hajmi yoki tashqi qarz va foizlarni qoplashga to'lovlar summasiga nisbati
Ijtimoiy omillar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy xatar darajasi kamayishi	Iqtisodiyotning hufiyonalashuvi, korrupsiya, firibgarlik darajasi kamayishi

**1-jadval**

**Hudud va korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash imkoniyatlari va ularning mazmunini belgilovchi omillar**

Mamlakatda hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash borasida o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rmaslik iqtisodiy pasayish, aholi bandligi qisqarishi, milliy ishlab chiqarish samaradorligi pasayishi singari salbiy oqibatlariga sabab bo'lishi mumkin.


Hudud va korxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning umumiy iqtisodiy tizimining muhim xususiyati bo'lib, u mamlakat iqtisodiyotining mustaqilligi, barqarorligi va mustahkamligi, aholi turmush darajasini oshirish, korxonalar va hududlarning samarali hamda raqobatbardosh faoliyat yuritishi, shaxsiy qoniqishni ifodalovchi milliy manfaatlarni doimiy ravishda takomillashtirish hamda izchil amalga oshirishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq shart-sharoit va omillarni aks ettiradi.

Ushbu holatda iqtisodiy xavfsizlik ularni boshqarishning turli: moliyaviy, tashqi iqtisodiy, oziq-ovqat, sanoat, hududiy va hokazo jihatlarini qamrab oladi. Jahon iqtisodiyotiga kiritilgan milliy iqtisodiyotning shakllanishi,

mamlakat va hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun korxonalarini davlat tomonidan tartibga solish tizimi doirasida ichki bozorning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tashqi va ichki tahdidlarga qarshi kurashga qaratilgan iqtisodiy faoliyat zarur.

“Hudud va korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining iqtisodiy xavfsizligi” kategoriyasi deganda ushbu tizimning hudud va uning hududida joylashgan korxonalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi normativ-huquqiy va dasturiy hujjatlardagi tahdidlardan himoya qilish holati nazarda tutiladi.

Bu xo'jalik yurituvchi subyektlarning barqaror va raqobatbardosh faoliyat yuritishi uchun shart-sharoitlar yaratib, hududiy iqtisodiyotni xavfsiz rivojlantirish tamoyillari asosida iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash xususiyatlarini aniqlash, iqtisodiy faoliyatni axborot bilan ta'minlash, uning intellektuallashuvi va inson kapitalini qayta tiklash imkonini berdi.




2-rasm.

### Xo'jalik tuzilmalarning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining tarkibiy qismi sifatida barqaror rivojlanish

“Iqtisodiy xavfsizlik” ta'rifining mazmuni “barqaror rivojlanish” toifasini o'z ichiga oladi, bunda iqtisodiy rivojlanishni uning sifat va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash jarayonlari mavjud bo'lgan davrni nazarda tutadi, ya'ni ijobiy ijtimoiy muhitni shakllantirishni ta'minlovchi muayyan ko'rsatkichlar uchun yuqoriroq

dinamika bo'lishi ko'zda tutiladi. Biroq barqaror rivojlanish omillaridan tashqari, “iqtisodiy xavfsizlik” toifasidagi tarkib mamlakat, korxonalar va mahsulotlarning raqobatbardoshligi omillarini o'z ichiga oladi. Raqobat omillarini aks ettiruvchi turli yondashuvlar 3-rasmda aks ettirilgan.



3-rasm.


**Hudud va korxonalarning iqtisodiy xavfsizligiga turli yondashuvlar nuqtayi nazaridan raqobatbardoshlik omillari**

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi xavf-xatarsiz faoliyat va tahdidlarni kamaytirishini hisobga olgan holda, tahdidlarni ichki va tashqi tahdidga tasniflaymiz, ularning oldini olish yoki kamaytirish yo'llari 4-rasmda ko'rsatilgan.

**Muhokama va xulosa.** Bugungi kunda saytlar va ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar tahlili vizual janrlar yordamida tayyorlangan yangilik va xabarlar, ya'ni onlayn jurnalistika tili bilan aytganda, media kontentlar auditoriya

tomonidan juda tez va oson qabul qilinmoqda. Aynan mana shu xususiyat borasida boshqa biror ommaviy axborot vositasi internet jurnalistikasiga teng kela olmaydi. Onlayn jurnalistikaning o'ziga xos xususiyati har qanday media mahsulotlarni iste'molchi va foydalanuvchilarga eng samarali, ta'sirli, qiziqarli va foydali shakllarda yetkazib berishdan iborat.





4-rasm.

Mamlakatning iqtisodiy xavfsizligiga tashqi tahdidlar va ularni kamaytirish yo‘llari

Iqtisodiy xavfsizlikning 4-rasmda aks ettirilgan tashqi xavf hajmining yuqoriligiga qaramasdan, ikkilamchi hisoblanib, mualliflarning fikricha [9-12], iqtisodiy xavfsizlikning ichki omillari birlamchi omil sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, hudud va kopxonalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sharoitlarini o'rganish mamlakat tabiiy, insoniy salohiyatga ega ekanligini ko'psatmoqda. Agar mamlakat ichidagi tahdidlarning oldi olinmasa va bartaraf etilmasa,

ichki tahdidlar iqtisodiyotni tashqi tahdidlarga ta'sirchan qilib qo'yadi. Ichki tahdidlar davlatni iqtisodiy va moliyaviy jihatdan zaiflashtirib, harbiy sohada tahdidlarning kuchayishiga olib keladi. Davlatning ichki tahdidlarga qarshi turish qobiliyatining pastligi uni samarali tashqi siyosat olib borishdan mahrum qilib qo'yadi, u milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlay olmaydi, raqobatbardosh mahsulotlar eksportini rag'batlantirib, yangi tovar bozorlarini egallay olmaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Климонова А.Н. Основные подходы к исследованию понятий «экономическая безопасность» и «экономическая безопасность государства». / А.Н. Климонова // Социально-экономические явления и процессы, 2014. – № 8. – С. 54–60.
2. Фолсом Б. Новый курс или кривая дорожка? Как экономическая политика Ф. Рузвельта продлила Великую депрессию / пер. с англ. А. Плиссеской под науч. ред. А. Куряева. – М.: Мысль, 2012. .
3. Ромащенко Т.Д. Экономическая безопасность национального хозяйства: Теория, методология, формирование в России: монография / Т.Д. Ромащенко. – Воронеж: Изд-во Воронежского гос. ун-та., 2003. – 216 с.
4. Сенчагов В.Г. Экономическая безопасность России: Общий курс // В.К. Сенчагов. – М.: Дело, 2005. – 610 с.
5. Кийко М.Ю. Противодействие наркобизнесу как стратегическое направление обеспечения экономической безопасности России: диссертация ... доктора экономических наук: 08.00.05 Институт проблем рынка РАН, 2017.
6. Овчинникова Т.И., Хорев А.И. Финансы. Экономика. Стратегия. – 2012, № 9. – С. 10-12.
7. Степанов А.Я. Категория «потенциал» в экономике [Электронный ресурс] / А.Я. Степанов, Н.В. Иванова. – Режим доступа : <http://www.marketing.spb.ru/read/article/a66.htm> (дата обращения 24.08.2017).
8. Тимофеев Р.А. Анализ тенденций развития и основных понятия, характеризующие ресурсный потенциал промышленного предприятия / Р.А. Тимофеев, С.М. Кулиш // Проблемы современной экономики, 2009. – № 2 (30) – С. 138-140.
9. Бондина Е. А., Чинахова С. Е. Формирование структуры экономической безопасности на предприятиях // Молодой ученый, 2017. – №13. – С. 253-257.
10. Саламова С. С. Теоретические подходы к обеспечению экономической безопасности предприятия / А. Волкова, М.Н. Волкова, Н.В. Плужникова, С.С. Саламова // ФЕС: Финансы. Экономика. Стратегия, 2015. – № 3. С.29-32.
11. Механизмы управления экономической безопасностью / Ю.Г. Лысенко, С.Г. Мищенко, Р.А. Руденский, А.А. Спиридонов: Монография. – Донецк: ДонНУ, 2002. – 175 с.
12. Манохина. М. Экономическая безопасность в современных условиях / Н.В. Манохина, М.В. Попов, Н.П. Колядин, И. Э. Жадан // Экономическая безопасность, 2014. – С. 96.